

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2025  
TABIIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>O.A.Abduhamidova, O.M.Nazarov, X.N.Saminov</b>	
Yerqalampir o'simligi bargalri efir moyining kimyoviy tarkibini o'rganish .....	5
<b>P.K.Turdalieva, S.M.Qosimova</b>	
Farg'ona xududida o'sadigan <i>Taraxacum officinale</i> Wigg. s.L. o'simligi tarkibida fenol birikmalari va bioelementlar miqdorini o'rganish.....	9
<b>V.M.Nosirova V.U.Xo'jayev</b>	
Asperugo procumbens o'simligi yer ustki qismining kul miqdori hamda makro va mikroelementlari tahlili .....	15
<b>D.Sh.Shavkatova</b>	
Yangilangan oltingugurtli betonning korroziyaga qarshi kuchi .....	19
<b>D.G'.Urmonov, A.K.Salman, I.J.Jalolov A.A.Ibragimov</b>	
Limonium otolepis yer ustki qismi geksan fraksiyasi gaz xromatografik-mass spektrometrik tahlili .....	29
<b>M.Y.Ismoilov, M.Sh.Ermatova</b>	
FNQIZ ishqoriy chiqindilar tarkibini tahlil qilish .....	33
<b>G.K.Najmitdinova, D.A.Shodihev, X.Sh.Xoshimjonov, N.X.To'xtaboyev</b>	
Mahalliy amarant navlaridagi biologik faol bo'yovchi moddalar miqdorini aniqlash hamda ulardan samarali foydalanish istiqbollari.....	44
<b>M.R.Murtozaqulov, Y.S.Fayzullayev, S.X.Botirov, D.J.Bekchanov, M.G.Muhamediyev</b>	
Tabiiy gazlarning nordon gazlardan tozalashda ishlatalgan metildietanolamin tarkibidagi termik barqaror tuzlarni ajratib olish .....	49
<b>M.I.Karabayeva, D.S.Salixanova, S.R.Mirsalimova</b>	
Temir asosida metall-organik adsorbentlar olishning samarali usullari .....	55
<b>N.N.Dexkanova, G.V.Tollibaeva</b>	
Uglerod oksisulfid molekulalarining nax seolitiga adsorbsiyasini mikrokalorimetrik.....	60
<b>D.A.Shodihev, G.K.Najmitdinova, X.Sh.Xoshimjonov, N.X.To'xtaboyev</b>	
Yangi amarant navlaridagi biologik faol moddalar va kimyoviy elementlarni o'rganish va maxsus oziq-ovqat qo'shimchasini yaratish istiqbollari .....	66
<b>I.R.Askarov, O.Sh.Abdulloev M.M.Kholmatova</b>	
Chemical composition and medicinal properties of fish and fish bones .....	72
<b>A.P.Xujakulov, I.R.Asqarov, A.X.Islomov</b>	
Yashil no'xat urug'i tarkibidagi vitaminlar miqdorini aniqlash.....	76
<b>H.R.Rahimova, A.A.Ibragimov</b>	
Phlomoides nuda o'simligining mikroelementlar tarkibi va vitaminlari .....	80
<b>Z.Q.Axmedova, I.R.Asqarov, Sh.M.Kirgizov</b>	
Study of antioxidant activity of a mixture prepared from Tribulus macropterus, Taraxacum officinale and inula helenium .....	85

## BIOLOGIYA

<b>B.M.Sheraliyev, S.Y.G'ułomov, I.I.Zokirov</b>	
Kumushrang tobonbaliq <i>Carassius gibelio</i> (Bloch, 1782) dagi bosh deformatsiyasining birinchi qaydi.....	89
<b>M.A.Axmadjonova, G.M.Zokirova</b>	
Fabaceae oilasi vakillarida tarqalgan <i>Sitona cylindricollis</i> (Fahraeus, 1840) ning morphologiyasi va bioekologiyasi.....	96
<b>M.M.Teshajonova, G.M.Zokirova</b>	
Tibbiyat oliygohi talabalariga gistologiya fanini o'qitishning innovatsion usullari .....	101
<b>I.A.Abdurazakova, A.E.Zaynabiddinov</b>	
Kaliforniya qizil yomg'ir chuvalchangini O'zbekiston sharoitida har xil ozuqada parvarish qilish .....	112
<b>K.P.Buriyeva, G.S.Mirzaeva, N.Z.Arabova</b>	
Taxonomy and Morphology of species of the genus Hippodamia (Chevrolat in Dejean, 1837), common in the Kashkadarya region .....	120



UO'K: 547.913+543.544.32

**YERQALAMPIR O'SIMLIGI BARGALRI EFIR MOYINING KIMYOVİY TARKİBİNİ  
O'RGANİSH**

**ИЗУЧЕНИЕ ХИМИЧЕСКОГО СОСТАВА ЭФИРНОГО МАСЛА ЛИСТЬЕВ ХРЕНА**

**STUDYING THE CHEMICAL COMPOSITION OF THE ESSENTIAL OIL FROM  
HORSERADISHLEAVES**

**Abduhamidova Ozoda Abdubannob qizi<sup>1</sup> **

<sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti, magistrant

**Nazarov Otobek Mamadaliyevich<sup>2</sup> **

<sup>2</sup>Farg'ona davlat universiteti, k.f.f.d.,(PhD), dotsent

**Saminov Xusniddin Numonjon o'g'li<sup>3</sup> **

<sup>3</sup>Farg'ona davlat universiteti, k.f.f.d.,(PhD)

**Annotatsiya**

*Farg'ona viloyatida o'sadigan yerqalampir quritilgan barglaridagi efir moyining tarkibi gaz xromatografiyasi-mass spektrometriya usuli bilan tadqiq qilindi. Tadqiqot natijalariga ko'ra yerqalampirning barglaridagi efir moyi tarkibida 21 ta birikma aniqlandi, ulardan 15 ta birikma, ya'ni 94,58% identifikasiya qilindi. Efir moyi tarkibida nitrillar, geterosiklik birikmalar, to'ynmagan uglevodorodlar, aldegidlar va terpenoidlar mavjud. Asosiy birikmalar sifatida 3-butennitril (48,3%); 10-metil-9-nonadeken (13,40%); (2R,4S)-2,4-dimetil-5-geksen-1-ol (9,95%); fenilatsetaldegid (4,6%); 1-(5(metil-2-furanil)-1-buten-3-on (3,6%); 1H-pirrol (2,2%) va (-)-izokariofilen (2,1%) aniqlandi.*

**Аннотация**

Методом газохромато-масс-спектрометрии был исследован химический состав эфирного масла, выделенного из сухих листьев хрена, произрастающего в Ферганской области. В результате исследования в эфирном масле было выявлено 21 соединение, из которых 15 (94,58% от общего состава) были идентифицированы. Эфирное масло включает нитрилы, гетероциклические соединения, ненасыщенные углеводороды, альдегиды и терпеноиды. Основные соединения: 3-бутиенинитрил (48,3%), 10-метил-9- nonадекен (13,40%), (2R,4S)-2,4-диметил-5-гексен-1-ол (9,95%), фенилацетальдегид (4,6%), 1-(5(метил-2-фуранил)-1-бутен-3-он (3,6%), 1Н-пиррол (2,2%) и (-)-изокарифилен (2,1%).

**Abstract**

*The chemical composition of the essential oil extracted from dried horseradish leaves grown in the Fergana region was analyzed using gas chromatography-mass spectrometry. The study identified 21 compounds in the essential oil, of which 15 were successfully identified, accounting for 94.58% of the total composition. The essential oil comprises nitriles, heterocyclic compounds, unsaturated hydrocarbons, aldehydes, and terpenoids. The major compounds include 3-butenenitrile (48.3%), 10-methyl-9-nonadecene (13.40%), (2R,4S)-2,4-dimethyl-5-hexen-1-ol (9.95%), phenylacetaldehyde (4.6%), 1-(5(methyl-2-furanyl)-1-buten-3-one (3.6%), 1H-pyrrole (2.2%), and (-)-isocaryophyllene (2.1%).*

**Kalit so'zlar:** *Armoracia rusticana, yerqalampir, barglari, gidrodistillatsiya, efirmoyi, GX-MS, 3-butennitril*

**Ключевые слова:** *Armoracia rusticana, хрэн, листья, гидродистилляция, эфирное масло, ГХ-МС, 3-бутиенинитрил*

**Key words:** *Armoracia rusticana, horseradish, leaves, hydrodistillation, essential oil, GC-MS, 3-butenenitrile*

**KIRISH**

Yerqalampir qadim zamonalardan beri dorivor va ozuqaviy qiymatga ega bo'lgan o'simlik. Yerqalampir bir qator bilogik faol moddalarning boy manbai hisoblanadi. Yerqalampirni inson salomatligi uchun zarur bo'lgan turli xil oziq-ovqat va tibbiy mahsulotlarni tayyorlashda ishlatalishi o'simlikni kimyoviy tarkibini o'rganishga bo'lgan qiziqishni uyg'otmoqda.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR


**Yerqalampir yoki *Armoracia rusticana*** G.Gaertn., B.Mey. & Scherb ***Armoracia* turkumi** Brassicaceae oilasiga mansub, tabiiy areali Rossiyaning Janubiy Yevropa qismi va Janubiy Ukraina bo'lgan hamda AQSH, Avstriya, Belarusiya, Belgiya, Buyuk Britaniya, Chexiya, Germaniya, Gollandiya, Finlandiya, Fransiya, Ispaniya, Italiya, Irlandiya, Kanada, Koreya, Norvegiya, Ruminiya, Rossiya, Polsha, Slovakiya, Shvetsiya, Shveysariya, Turkiya, Xitoy, Yamayka, Yangi Zelandiya, Yaponiya, Qirg'iziston, Qozog'iston, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston va boshqa davlatlarda madaniylashtirilgan ko'p yillik o'simlik[1]. Yerqalampirning tabiiy holatda ildizi deyarli hidga ega emas; faqat ildizi maydalanganda, bo'linganda va chaynagandan keyin glikozinolatlarni parchalaydigan fermentlarni faollashgani uchun tegishli hidga ega bo'ladi. Shunday fermentlardan biri mirozinaza bo'lib, glikozinolatlarni izotiosianat, nitril, tiosianat, epitionitril va oksazolidinlargacha gidrolizlaydi[2,3,4]. Yerqalampirning asosan ildizi, novdasi va barglarining kimyoviy tarkibi o'rganilgan. Yerqalampir ildizini GX-MS usulida tadqiq qilish natijasida 30 ta glikozinolatlar aniqlangan bo'lib, sinigrin miqdori glikozinolatlarning 80% ni tashkil etgan[5]. Yerqalampir ildizini va barglarini TF-YuSSX usulida tadqiq qilish natijasida ildizida 27 ta va barglarida 9 ta glikozinolatlar aniqlangan bo'lib, ildizida ularni miqdori 2-296 · mol/g hamda sinigrin miqdori glikozinolatlarning 83% ni tashkil etgan[6]. Barglarida glikozinolatlar miqdori 34-201 · mol/g hamda sinigrin miqdori glikozinolatlarning 92% ni tashkil etgan[6]. Yerqalampir novdalari va ildizini TF-YuSSX va SX-ESI-FTIR-MS usulida tadqiq qilish natijasida novdalarida 16 ta va ildizida 11 ta glikozinolatlar aniqlangan[7]. Yerqalampir ildizinining uchuvchan birikmalarini tadqiq qilish natijasida 18 ta birikma aniqlangan. 2-feniletil izotiosianat eng ko'p miqdorda aniqlangan. Uchuvchan birikmalar tarkibida oltingugurt saqlagan birikmalar, izotiosianatlar, aldegidlar, furan hosilalari va terpenoidlar aniqlangan[8]. Serbiyada o'sadigan A. *rusticana* o'simligi ildizlaridan gidrodistillash natijasida olingen efir moyining miqdori 0,14% ni tashkil etgan. GX-FID va GX-MS usullari yordamida 11 ta birikma aniqlangan. Allilizotiosanat(56,3%) va 2-feniletil isotiosianat(37,3%) asosiy birikmalar bo'lib, allil tiosianat miqdori 5,0% ni tashkil etgan[9]. Xitoyda o'sadigan A. *rusticana* o'simligi ildizlaridan gidrodistillash natijasida olingen efir moyining tarkibida ham 2-feniletil isotiosianat(77,8%), allilizotiosanat(15,9%) va alliltiosianat(2,2%) aniqlangan[10]. Adabiyot ma'lumotlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, yerqalampirning ildizi kimyoviy tarkibi chuqur o'rganilgan, ammo barglari efir moyining kimyoviy tarkbi to'liq o'rganilmagan. Tadqiqotimizning maqsadi mahalliy sharoitda o'sadigan yerqalampirning efir moylarini ajratib olish va uning komponet tarkibini o'rganishdan iboratdir. Yerqalampir o'simligining barglari 2024-yil iyun oyida Farg'ona viloyati Yozyovon tumanidan yig'ib olindi. O'simlikning barglari quruq va quyosh nurlari tushmaydigan joyda quritildi. A.*rusticana* o'simligining maydalangan quritilgan barglaridan efir moyi Klevenjer asbobida yordamida 4 soat davomida gidrodistillash orqali olindi. Olingen moy o'ziga xos hidli och sariq rangli harakatchan suyuqlik. Olingen efir moyi yopiq ampulada 0°C da gaz xromatografiysi-mass-spektrometriya usuli bilan tahlil qilinguncha saqlandi. *Xromato-mass spektral tahlil*. O'rganilayotgan yerqalampir barglari efir moyining uchuvchan komponentlarini aniqlash Agilent 5975C inertMSD kvadropul mass-spektrometrik detektor bilan jihozlangan Agilent 7890AGC gaz xromatografida amalga oshirildi. Efir moyining tarkibiy qismlarini ajratish HP-5MS (30m · 250 · m · 0.25 · m) kvarts kapillyar kolonkada amalga oshirildi: 50 · C (2 min) - 10 · C/min dan 200 · C (6 min) gacha - 15 · C/min dan 290 · C gacha (15 min). Kiritilgan namunaning hajmi 1 · l (geksan, dixlorometan), harakatlanuvchi fazaning oqim tezligi 1,3 ml/min. Komponentlar massa spektrlarining xususiyatlarini NIST17.L, W9N11.L va W8N05ST.L elektron kutubxonalarini ma'lumotlari va n-alkanlar aralashmasini saqlash vaqtidan aniqlangan Kovach indekslari ma'lumotlari bilan taqqoslash asosida aniqlangan. Olingen xromatogramma, tahlil natijalari va aniqlangan komponentlar 1-rasm va 1-jadvalda keltirilgan.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Yerqalampirning quritilgan barglaridan Klevenjer asbobida ajratib olingen efir moyining unumi 0.2% ni tashkil etdi. Yerqalampir barglaridan ajratib olingen efir moyining GX-MS usulida o'rganish natijasida 21 ta birikmadan 15 tasi, ya'ni 94,58% identifikasiya qilindi. Aniqlangan birikmalar orasida nitrillar, geterosiklik birikmalar, to'yinmagan uglevodorodlar, aldegidlar va

## KIMYO

terpenoidlar mavjud. Jadvalda keltirilgan natijalar shuni ko'rsatadiki, o'rganilayotgan o'simlik efir moyining asosiy birikmalari 3-butennitril (48,3%); 10-metil-9-nonadeken (13,40%); (2R,4S)-2,4-dimetil-5-geksen-1-ol (9,95%); fenilatsetaldegid (4,6%); 1-(5(metil-2-furanil)-1-buten-3-on (3,6%); 1H-pirrol (2,2%) va (-)-izokariofilin (2,1%) hisoblanadi(1-jadavl). Yerqalampir ildizidan ajratib olingan efir moyi izonitriillarga boy bo'lib, barglari efir moyining asosiy komponenti vililasetonitril ekanligi aniqlandi. Adabiyotda berilgan ma'lumotlarni solishtiradigan bo'lsak, asosan yerqalampir ildizidan ajratib olingan efir moylarining kimyoviy tarkibi o'rganilgan bo'lib, ildizining efir moyi asosan izotiosianatlardan iboratligi namoyon bo'ladi[8-10].



**1-rasm.** Yerqalampir barglari efir moyining xromatogrammasi

Yerqalampirning muzlatib quritilgan barglari ekstraktini YuSSX usulida o'rganish natijasida 15 ta birikma identifikasiya qilinib, aniqlangan birikmalarning 93,80% ni tashkil etgan. Asosiy birikmalar sifatida 3-butennitril (39,54%); allilizotiosianat (9,42%); etanol(7,40%); 2-geksen-1-ol,(Z) (5,73%); sirka kislota (5,60%); 2-penten-1-ol,(Z) (4,86%); 2-butennitril(3,41%); benzaldegid (2,61%); 2-metil-2-propennitril(2,45); geksanal (2,39%); benzil spirt (2,28%); 2-nitroetanal (2,16%) va pentanal (1,36%) aniqlangan[11]. Yerqalampirning ho'l bargalri ekstrakti tarkibida asosoii birikmalar sifatida allilizotiosianat(23,39%); etanol (8,47%); -fellandren(8,31%); 3,6-dimetil-2,3,3a,4,5,7a-geksagidrobenzofuran (4,71%); benzaldegid(4,54); -fellandren(4,47%); butil izotiosianat(3,74%); benzil spirti(3,48%) va allantoin kislota(2,02%) aniqlangan[11]. Yerqalampir barglari quritlganda izotiosinatlarni miqdori kamayib ketishini kuzatish mumkin. Tadqiqot natijalariga ko'ra biz o'rgangan yerqalampir barglari efir moylarida hamda avvalroq o'rganilgan yerqalampir barglari ekstraktida ko'p birikma 3-butennitril miqdori ko'p birikma aniqlandi hamda mahalliy yerqlampir tarkibida 3-butennitril miqdori 8,8% ga ko'proq ekanligi namoyon bo'ldi. 3-Butennitril o'simliklarga spetsifik piyozi hidini beradi.

**1-Jadval**

**Yerqalampir barglari efir moyining komponent tarkibi**

Nº	Birikma	UI*	Miqdori, %
1	Oksalat kislota allil pentil efiri	1072	0.63
2	3-Butennitril	1107	48.34
3	1H-pirrol	1404	2.20
4	(-)-izokariofilen	1525	2.15
5	Fenilatsetaldegid	1542	4.63
6	7-Propan-2-ilidenbitsiklo[4.1.0]geptan	1617	1.96
7	Di-epi- -sedren	1676	1.50
8	Siklogepta-1,3,5-triyen	1789	0.76

9	3-Fenilpropionitril	1855	0.57
10	(2R,4S)-2,4-Dimetil-5-geksen-1-ol	1974	9.95
11	1-(5(Metil-2-furanil)-1-buten-3-on	1992	3.63
12	Bisabolin	2021	1.40
13	1H-Indol	2178	1.52
14	10-metil-9-nonadetsen	2434	13.40
15	trans-3-tetradetsen	2695	1.94

UI – ushslash indeksi (Kovach indeksi)

### XULOSA

Yerqalampir barglaridan gidrodistillash usulida ajratib olingan efir moyining kimyoviy tarkibi GX-MS usuli bilan o'rganilishi natijasida 15 ta birikma identifikasiya qilindi. Efir moyi tarkibida nitrillar, geterotsiklik birikmalar, to'ynmagan uglevodorodlar, aldegidlar va terpenoidlar mavjudligi aniqlandi. Yerqalampir barglari efir moyi tarkibida eng yuqori miqdorda 3-butennitril (48,3%) aniqlandi. Efir moyi tarkibida to'ynmagan uglevodorodlar hosilalari ham sezilarli miqdorga egaligi namoyon bo'ldi. Yerqalampir barglari efir moyi mikrobg'a qarshi vositalar tayyorlashda qo'llanish uchun tavsija qilinishi mimkin.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.Govaerts, R. (1995). World Checklist of Seed Plants 1(1, 2): 1-483, 529. MIM, Deurne.
- 2.Jiang Z.T., Li R., Yu J.C. (2006) Pungent components from thioglucosides in *Armoracia rusticana* grown in China, obtained by enzymatic hydrolysis. *Food Technol Biotechnol.* 44(1):41–45.
- 3.Bones A.M., Rossiter J.T. (2006) The enzymic and chemically induced decomposition of glucosinolates. *Phytochemistry.* 67(11):1053–1067.
- 4.Blazevic I., Mastelic J. (2009) Glucosinolate degradation products and other bound and free volatiles in the leaves and roots of radish (*Raphanus sativus* L.). *Food Chem.* 113:96–102.
- 5.Grob K., Matile P.H. (1980) Capillary GC of glucosinolate-derived horseradish constituents. *Phytochemistry.* 19(8):1789–1793.
- 6.Li X., Kushad M.M. (2004) Correlation of glucosinolate content to myrosinase activity in horseradish (*Armoracia rusticana*). *J Agric Food Chem.* 52:6950–6955.
- 7.Agneta R., Rivelli A.R., Ventrella E., Lelario F., Sarli G., Bufo S.A. (2012) Investigation of glucosinolate profile and qualitative aspects in sprouts and roots of horseradish (*Armoracia rusticana*) using LC-ESI - hybrid linear ion trap with Fourier transform ion cyclotron resonance mass spectrometry and infrared multiphoton dissociation. *J Agric Food Chem.* 60(30):7474–7482.
- 8.Bentivenga, G.,D'Auria M., Mauriello G., Raciotti R. (2004) SPME-GC-MSanalysis of horseradish (*Armoracia rusticana*). *Ital J Food Sci.* 4(16):487–490.
- 9.Petrovic S., Drobac M., Ušjak L., Filipovic V., Milenkovic M., Niketic M.(2017) Volatiles of roots of wild-growing and cultivated *Armoracia macrocarpa* and their antimicrobial activity, in comparison to horseradish, *A. rusticana*. *Ind. Crops Prod.* 109: 398–403.
- 10.Ren J.J., Zhang D.,Hou P.X., Wu H.(2020) Effects of horseradish oil (*Armoracia rusticana*) and eight isothiocyanates vapour treatment on the postharvest disease control and their efficacy as preservatives of mature green tomato. *Plant. Dis.* 104: 2688–2695.
- 11.Tomsone, L., Galoburda, R., Kruma, Z., Cinkmanis, I. (2020) Characterization of dried horseradish leaves pomace: phenolic compounds profile and antioxidant capacity, content of organic acids, pigments and volatile compounds.*Eur Food Res Technol.* 246, 1647–1660.